

CHET TILI DARSLARIDA LEKSIK KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH USHLUBLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15825153>

Ahmadova Azimaxon Behzod qizi

Farg'ona davlat universiteti Chet tillari fa3kulteti Xorijiy til va adabiyoti:

nemis tili yo'nalishi 24.116-guruh talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada chet tili darslarida leksik ko'nikmalarni rivojlantirish ushlublari tizimli tahlil qilinadi. Leksik ko'nikmalar til o'rganish jarayonining markaziy tarkibiy qismi bo'lib, ularning shakllanishi o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida interfaol metodlar, o'yinli mashg'ulotlar, kontekstual o'rganish, audiovizual vositalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining samaradorligi amaliy tajribalar asosida o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kompleks va individual yondashuvlar uyg'unligi orqali leksik ko'nikmalar samarali rivojlantiriladi. Maqolada mavjud ushlublarning afzalliklari va amaliy qo'llanilishi bo'yicha tavsiyalar ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: leksik ko'nikma, kontekstual o'rganish, audiovizual materiallar, individual yondashuv.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ НАВЫКОВ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация В данной статье проводится системный анализ методов развития лексических навыков на уроках иностранного языка. Лексические навыки являются центральным компонентом процесса изучения языка, и их формирование играет важную роль в развитии коммуникативной компетенции учащихся. В ходе исследования на основе практического опыта изучена эффективность интерактивных методов, игровых занятий, контекстуального обучения, аудиовизуальных средств и информационно-коммуникационных технологий. Результаты показали, что лексические навыки эффективно развиваются благодаря сочетанию комплексного и индивидуального подходов. В статье также представлены рекомендации по преимуществам и практическому применению существующих методов.

Ключевые слова: лексический навык, контекстуальное обучение, аудиовизуальные материалы, индивидуальный подход.

METHODS OF DEVELOPING LEXICAL SKILLS IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES

Abstract *This article provides a systematic analysis of methods for developing lexical skills in foreign language lessons. Lexical skills are a central component of the language learning process, and their formation plays a crucial role in developing students' communicative competence. The study examined the effectiveness of interactive methods, game-based activities, contextual learning, audiovisual aids, and information-communication technologies based on practical experiences. Results indicated that lexical skills are effectively developed through a combination of comprehensive and individualized approaches. The article also outlines the advantages of existing methods and provides recommendations for their practical application.*

Keywords: *lexical skills, contextual learning, audiovisual materials, individualized approach.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida chet tillarini o'rganish nafaqat shaxsiy, balki kasbiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda xalqaro hamkorlik, ilmiy almashinuvlar, xorijiy investitsiyalar va turizm sohalarining kengayib borishi chet tillarini chuqur o'zlashtirish zaruratini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, xorijiy til bilimdonligi zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh kadr bo'lish uchun muhim mezonlardan biriga aylangan.

Chet tilini o'rganishda leksik ko'nikmalar, ya'ni so'z boyligini rivojlantirish va uni faol nutqda qo'llash qobiliyati markaziy o'rin tutadi⁴⁰. Zero, til bilimining yuqori darajasini aniqlashda so'z boyligi asosiy mezonlardan biri sifatida baholanadi. Leksik ko'nikmalarning puxta shakllanishi o'z fikrini aniq, to'g'ri va ravon ifodalash imkonini beradi, muloqot samaradorligini oshiradi hamda tildagi grammatik va fonetik ko'nikmalarni ham faol rivojlantirishga xizmat qiladi.

Leksik ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida turli metodik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar, interfaol va kommunikativ o'qitish uslublaridan foydalanish samaradorlikni yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Chet tili darslarida leksik ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar, nazariy manbalar va amaliy tajribalarda turli metod va yondashuvlar keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotda mavzuga doir ilg'or nazariy qarashlar, psixolingvistik yondashuvlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida adabiyotlar tahlili amalga oshirildi.

Ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida leksik ko'nikmalar til o'rganish jarayonining markaziy tarkibiy qismi ekanligi, ularning shakllanishida psixolingvistik jarayonlarning (eslab qolish, assotsiatsiya, avtomatlashtirish va faol nutqqa joriy etish) muhim o'rin tutishi aniqlangan. Xususan, A. Leontyev, V. Zimnyaya, E. Hatch, M. Lewis kabi tilshunos va

⁴⁰ Nation, I. S. P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press.

metodistlarning ishlarida lug'at boyligini rivojlantirish bo'yicha samarali nazariy asoslar bayon etilgan. Lexical Approach, Communicative Language Teaching, Task-Based Language Teaching kabi zamonaviy yondashuvlar leksik ko'nikmalarni shakllantirishda kommunikativ va amaliy faoliyatga asoslangan o'quv jarayonini ilgari suradi.

Shuningdek, ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarda interfaol metodlar (muomala asosidagi ta'lim, rolli o'yinlar, guruhli ishlar), o'yinli mashg'ulotlar, kontekstual o'rganish, audiovizual materiallardan foydalanish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlari yuqori samaradorlik ko'rsatgani qayd etiladi. Adabiyotlarda keltirilgan tavsiyalar asosida ushbu tadqiqot doirasida metodologik yondashuv ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida kompleks yondashuv asos qilib olindi. Unda quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

Nazariy bosqichda mavjud ilmiy adabiyotlar, ilg'or tajribalar, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tizimli tahlil qilindi. Leksik ko'nikmalarning rivojlanish bosqichlari, o'zlashtirish mexanizmlari va psixologik xususiyatlari chuqur o'rganildi.

Metodik asoslarni shakllantirishda adabiyotlar tahlili asosida samarali deb topilgan interfaol o'qitish usullari, o'yinli mashg'ulotlar, kontekstual o'rganish, audiovizual va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodlari tanlandi va tizimlashtirildi.

Amaliy kuzatuv va monitoringda dars jarayonida talabalarning ishtirok faoliyati, so'zlarni eslab qolish darajasi, motivatsiyasi, mustaqil ishlashga qiziqishi muntazam monitoring qilindi. Talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvlar ishlab chiqildi.

Tahliliy bosqichda yig'ilgan natijalar statistik va tahliliy usullar yordamida qayta ishlanib, metodlarning samaradorlik darajasi aniqlashtirildi.

Ushbu metodologik yondashuv natijasida leksik ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda kompleks, innovatsion va individual yondashuvlarning uyg'unlashuvi samarali ekanligi tasdiqlandi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida olib borilgan amaliy tajribalar va kuzatuvlar asosida chet tili darslarida leksik ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha qo'llanilgan metodlarning samaradorligi aniqlashtirildi. Turli metod va uslublardan foydalangan holda o'tkazilgan mashg'ulotlar natijasida talabalar o'rtasida so'z boyligini o'zlashtirish, ularni faol nutqda qo'llash va eslab qolish darajasida sezilarli o'sish qayd etildi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

Interfaol metodlarning samaradorligi bilan guruhli ish, munozara, rolli o'yinlar va loyiha asosidagi mashg'ulotlarda ishtirok etgan talabalar so'z boyligini tezroq o'zlashtirishga va uni faol nutqda mustahkamlashga muvaffaq bo'ldilar. Bu uslublar talabalarning kommunikativ faoliyatini oshirib, tilga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani kuchaytirdi. O'yinli mashg'ulotlar orqali yodlash samaradorligiga erishildi. O'yin elementlari

qo'llanilgan mashg'ulotlarda talabalar yangi so'zlarni tezroq eslab qolish, ularni kontekstda qo'llash va so'zlarni faol nutqqa joriy etishda yuqori natijalarga erishdilar.

⁴¹Kontekstual o'rganishning ijobiy ta'siri: Nutqiy vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar natijasida talabalar so'z va iboralarning mazmunini chuqurroq anglab, ularni turli kontekstlarda mustaqil ravishda qo'llash malakasiga ega bo'ldilar. Bu esa, o'z navbatida, ularning nutq ravonligini oshirdi.

Audiovizual vositalarning qo'llanilishi natijasida eshitish va ko'rish materiallari asosida olib borilgan mashg'ulotlarda talabalar yangi leksik birliklarni tushunish, talaffuz qilish va amaliy nutqda qo'llash bo'yicha ancha yuqori natijalarga erishdilar.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) samaradorligi shu bo'ldiki, onlayn platformalar va interaktiv dasturlar orqali o'qitilgan talabalar o'zlashtirish sur'atini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldilar, o'z-o'zini nazorat qilish va mashqlarni takrorlash orqali so'z boyligini kengaytirdilar.

Individual yondashuv natijalari orqali talabalar individual ehtiyojlariga moslashtirilgan mashg'ulotlar natijasida o'zlarining til o'zlashtirishdagi zaif va kuchli tomonlarini aniqlab, individual rivojlanish traektoriyalarini shakllantira oldilar.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, leksik ko'nikmalarni rivojlantirishda faqatgina biror bitta metoddan foydalanish emas, balki turli metodlarning kompleks ravishda uyg'unlashtirilgan qo'llanilishi yuqori natija beradi. Ayniqsa, interfaollik, motivatsiya, real kommunikativ vaziyatlar va zamonaviy texnologiyalarning birgalikdagi qo'llanilishi talabalar lug'at boyligini samarali rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

MUHOKAMA

Olib borilgan tadqiqot natijalari chet tili darslarida leksik ko'nikmalarni rivojlantirishda turli metodik yondashuvlarning o'ziga xos afzallik va imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Leksik ko'nikmalar til kompetensiyasining markaziy tarkibiy qismi bo'lib, ularning shakllanishi bevosita o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interfaol metodlar, ayniqsa guruhli ishlash, rolli o'yinlar va muhokamalar, talabalarni faol fikrlashga undaydi, muloqotga kirishish ko'nikmasini shakllantiradi hamda lug'at boyligini kontekstda mustahkamlashga imkon yaratadi. Ushbu metodlar talabalarning ijtimoiy-psixologik faolligini oshirib, til o'rganishdagi ishtirokini kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, leksik birliklarning ongli va mustahkam o'zlashtirilishiga olib keladi.

O'yinli mashg'ulotlar, o'yin elementlari va musobaqaviy vazifalar talabalarning emotsional holatini ijobiy tomonga o'zgartirib, o'qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O'yin asosida o'rgatish kognitiv faoliyatni faollashtirib, eslab qolish jarayonini osonlashtiradi va so'zlarni faol nutqda tezroq qo'llashga yordam beradi.

3 Ur, P. (1996). *A Course in Language Teaching: Practice and Theory*. Cambridge University Press.

Kontekstual o'rganish esa o'z navbatida tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi. So'z va iboralarining kontekstda qo'llanilishi semantik anglashni chuqurlashtiradi va nutqiy moslashuvchanlikni rivojlantiradi. Bu usul nafaqat so'zlarni yodlash, balki ularning to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llanilishini ham ta'minlaydi.

Audiovizual materiallardan foydalanish esa talabalar eshitish va tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Autentik materiallar orqali o'quvchilar tilning tabiiy talaffuzi, intonatsiyasi va nutqiy tezligini o'rganadilar. Shuningdek, bu vositalar leksik birliklarni nutqiy kontekstda eshitish va tushunish orqali mustahkamlashga imkon beradi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qitish jarayonida individual yondashuvni samarali tashkil etish imkonini beradi. Onlayn resurslar, mobil ilovalar va interaktiv platformalar yordamida talabalar o'z tempida, istalgan vaqtda mustaqil mashq qilishlari, so'z boyligini oshirishlari va o'zini nazorat qilishlari mumkin.

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanganidek, individual yondashuv har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda dars tashkil qilish imkonini beradi. Bu esa leksik materialni o'zlashtirish jarayonida shaxsiy farqlarning inobatga olinishi orqali yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, chet tili darslarida leksik ko'nikmalarni rivojlantirishda kompleks yondashuv eng samarali natijalarni beradi. Turli metodlarning uyg'unlashuvi, talabalarining faol ishtiroki va zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi til o'rganish jarayonini samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, chet tili darslarida leksik ko'nikmalarni rivojlantirish til o'rgatish jarayonining markaziy va eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Leksik ko'nikmalar shakllanishi o'quvchilarning umumiy til kompetensiyasini rivojlantirish, erkin muloqotga kirishish, fikrini aniq va ravon ifodalash hamda akademik va kasbiy faoliyatda til vositalaridan samarali foydalanishga zamin yaratadi. Leksik ko'nikmalarni rivojlantirishda interfaol metodlar, o'yinli mashg'ulotlar va kontekstual o'rganish uslublari ayniqsa yuqori natija bermoqda. Bunday yondashuvlar talabalarining tilga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi va ularni faol muloqotga jalb etadi. Shuningdek, audiovizual materiallardan foydalanish o'quvchilarning eshitish, tushunish va talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'lib, leksik birliklarning mazmunli va ongli o'zlashtirilishiga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash esa mustaqil ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlaydi, talabalar o'z-o'zini nazorat qilish va muntazam takrorlash orqali so'z boyligini muntazam rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Individual yondashuv natijasida har bir talabaga mos o'quv strategiyalarini ishlab chiqishga, ularning shaxsiy o'zlashtirish xususiyatlarini inobatga olishga va maksimal natijalarga erishishga imkon yaratadi.

Shu asosda, chet tili darslarida leksik ko'nikmalarni rivojlantirishda kompleks, integrativ va individual yondashuvlar uyg'unligi yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Kelgusida mazkur yo'nalishda yanada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish, yangi pedagogik texnologiyalarni sinovdan o'tkazish va o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmedov, B. (2020). Chet tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 4(1), 72-76 s.
2. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.
3. Nation, I. S. P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
5. Schmitt, N. (2000). *Vocabulary in Language Teaching*. Cambridge University Press.
6. Thornbury, S. (2002). *How to Teach Vocabulary*. Longman.
7. Ur, P. (1996). *A Course in Language Teaching: Practice and Theory*. Cambridge University Press.
8. Hazapova, M. (2018). Chet tillarni o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirishning zamonaviy usullari. *O'zbek tilshunosligi jurnali*, 3(2), 45-50.
9. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.